

Buxoro viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2026- yil yanvar-may oyi uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2026- yilning yanvar-may oyida, Buxoro viloyatida jami 7 218,9 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 126,2 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Buxoro viloyati	7 218,9	126,2
Buxoro sh.	1 242,3	106,8
Kogon sh.	149,2	145,5
Olot tumani	493,8	2,0 m.
Buxoro tumani	308,9	101,6
Vobkent tumani	174,6	134,0
G'ijduvon tumani	326,1	106,3
Kogon tumani	346,5	122,3
Qorako'l tumani	429,2	189,5
Qorovulbozor tumani	582,7	2,6 m.
Peshku tumani	303,7	109,4
Romitan tumani	416,8	108,5
Jondor tumani	278,5	103,9
Shofirkon tumani	365,2	129,6

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari


2026- yilning yanvar-may oyida Buxoro viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 64,7 % ulushni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 130,8 % ni tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 27,9 % ulushni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 131,4 % ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 7,4 % ulushni va 2025- yilning mos davriga nisbatan 86,4 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	1 005,8	325,6	190,3
o'sish sur'ati, %	6,2 m.	90,3	93,9
Kichik korxonalar va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	1 127,8	1 687,8	344,3
o'sish sur'ati, %	97,0	144,0	82,7
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	2 537,3	-	-
o'sish sur'ati, %	113,0	-	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi (yillik)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2026- yilning yanvar-may oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 521,7 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2025- yilning mos davriga nisbatan 2,1 m. ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 8,4 % ga ko'payib, 21,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 43,8 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2025- yilning mos davriga nisbatan 114,9 % ni tashkil etgan holda 3 159,9 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 35,1 % ni yoki 2 537,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 113,0 % ni tashkil etdi.

Korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



**Hududlar kesimida korxonalar turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Buxoro viloyati	1 521,7	3 159,9	2 537,3	2,1 m.	114,9	113,0
Buxoro sh.	148,8	866,3	227,2	89,6	110,8	105,5
Kogon sh.	3,7	113,9	31,6	24,1	195,8	108,5
Olot tumani	333,9	98,7	61,2	23,4 m.	58,0	104,2
Buxoro tumani	15,3	189,0	104,6	168,4	94,1	111,0
Vobkent tumani	11,5	104,8	58,3	136,0	155,1	107,4
G'ijduvon tumani	19,8	191,4	114,9	50,2	122,5	103,4
Kogon tumani	13,1	252,5	80,9	41,0	143,1	108,0
Qorako'l tumani	251,8	115,1	62,3	7,4 m.	84,9	109,2
Qorovulbozor tumani	514,0	57,6	11,1	2,8 m.	166,0	111,0
Peshku tumani	6,2	199,6	97,9	72,8	110,2	111,3
Romitan tumani	39,6	270,4	106,8	41,0	142,8	108,8
Jondor tumani	9,3	200,8	68,4	78,4	104,3	107,3
Shofirkon tumani	36,0	259,8	69,4	162,2	132,1	110,4

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Olot tumanida (23,4 m.), Qorako'l tumanida (7,4 m.) va Qorovulbozor tumanida (2025- yilning mos davriga nisbatan 2,8 m.) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Kogon shahrida (2025- yilning mos davriga nisbatan 195,8 %), Qorovulbozor tumanida (166,0 %) va Vobkent tumanida (155,1 %) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;

d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;



- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-ion-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

Sh. Xodjaev
65 223-81-99 (8020)

Manzil:

200100, Buxoro sh.,
Gazli shoh ko'chasi, 32-uy
